



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRINING
BUYRUG'I**

2021-yil 28-oktobe

451-son

Toshkent sh.

**Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi
va talaba-qizlar, muassasa va
tashkilotlarda ishlovchi xotin-qizlar
o'rtasidagi muloqotning yangi
mexanizmini joriy etish to'g'risida**

Bugungi kunda respublikamizda 150 dan ortiq oliy ta'lism muassasalarini va filiallari faoliyat yuritmoqda. Mazkur ta'lism muassasalarida ta'lism olayotgan talabalarga ta'lism berish bilan bir qatorda ularning shaxsiy kamoloti yo'lida ham talaygina ishlar qilindi.

Shu bilan birga ta'lism oluvchi talabalar bilan ishlashda ularga nisbatan ustozlarga xos bo'lgan munosabatni to'liq shakllantirishda ayrim kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Xususan, ayrim oliy ta'lism muassasalarida talabalar bilan rahbariyat o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqotning tashkil etilmaganligi, talabalarga nisbatan tazyiq va jismoniy zo'ravonlik, xususan talaba qizlarga nisbatan tegajog'lik holatlarining uchrayotganligi achinarli holdir.

Barcha oliy ta'lism va professional ta'lism muassasalarida, akademik litseylarda, vazirlik tasarrufidagi idoraviy mansub tashkilotlarda xotin-qizlar, xususan talaba-qizlarga nisbatan tegajog'lik, tazyiq va zo'ravonliklarni oldini olish maqsadida

BUYURAMAN:

1. **2021-yil 28-oktabrdan** boshlab Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi va talaba-qizlar, muassasa va tashkilotlarda ishlovchi professor-o'qituvchi va xodim ayollar o'rtasida tegajog'lik, tazyiq va zo'ravonliklar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri aloqa vositasi – **himoya_otv_bot** (Keyingi o'rnlarda – Himoya tarmog'i) tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tegajog'lik, tazyiq va zo'ravonliklar haqida murojaatlar bilan tezkor ishslashning quyidagi tartibi joriy etilsin:

a) Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligining 1006 ishonch telefoni hamda Himoya tarmog'i orqali kelib tushgan professor-o'qituvchi, xodim va talaba xotin-qizlar murojaatlarini **ko'rib chiqish va zarur choralarни ko'rish uchun** – Ma'naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasiga yo'naltiriladi;

b) Ma'naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi mazkur murojaatlarni 1 (bir) kunlik muddatda ijro uchun qabul qiladi va zudlik bilan qilinishi lozim bo'lgan tadbirlar haqida vazirning birinchi o'rinnbosarini, lozim hollarda vazirni xabardor qiladi;

d) nojo'ya xatti-harakatlar, huquqbuzarlik holati yuzasidan tegishli ta'lim muasasasi yoki tashkilotda xabar olingan kundan boshlab 24 soat ichida xizmat tekshiruvi yoki o'rganishlar o'tkaziladi, yakunlari bo'yicha vazirlik rahbariyatiga batafsil axborot beriladi;

e) vazirlik zaruriyatga ko'ra tekshiruv va o'rganish yakunlari bo'yicha sodir etilgan huquqbuzarlik holati haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarni, Vazirlar Mahkamasi yoki boshqa yuqori turuvchi instansiyalarni tegishli tartibda xabardor qiladi.

Belgilansinki, murojaat etuvchining shaxsi oshkor etilmaydi hamda tuhmat yoki yolg'on xabar berish orqali bo'ladigan murojaatlar bo'yicha qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib bo'yicha tegishli choralar ko'riladi.

3. Tegajog'lik, tazyiq va zo'ravonliklar bo'yicha murojaatlar bilan ishlovchi ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Inobatga olinsinki, alohida hollarda (*kuchli rezonans bergan hodisalar, og 'ir oqibatlarga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan hodisalar, ko'pchilik tomonidan yoki ojizligi ayon bo'lgan shaxslarga nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklar va boshqalar*) hamda vazirlik rahbariyati ko'rib chiqish shart deb hisoblagan holatlarda ishchi guruh tomonidan zudlik bilan ko'rib chiqiladi.

Belgilab qo'yilsinki, ishchi guruh a'zolari va mazkur turdag'i murojaatlar bilan ishlovchi har bir xodim jarayon haqida va unda nomlari keltirilgan shaxslarga doir ma'lumotlarning **konfidensialligini ta'minlash bo'yicha shaxsan javobgar hisoblanadi**.

4. Oliy ta'lim muassasalari (filiallari), professional ta'lim muassasalari, akademik litseylar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlarda quyidagilar to'liq ta'minlansin:

xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari unda xodimning pedagog va ta'lim muassasasi xodimiga munosib bo'lish talabi mavjudligi yuzasidan xatlovdan o'tkazilishi, yangi ishga qabul qilinayotgan xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalarida mazkur talab bo'lishi;

ta'lim muassasalarining ichki tartib qoidalari va Etika (Odob-axloq) qoidalari ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilar va ta'lim oluvchilar, shuningdek xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning umumaxloq normalariga mos bo'lishi haqidagi qoidalari bilan to'ldirilishi;

professor-o'qituvchi, xodim va talaba xotin-qizlarga nisbatan hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lish;

professor-o'qituvchi, xodim va talaba xotin-qizlar o'rtasida mavzuga doir so'rovnomalar tashkil etish;

muntazam ravishda tegajog'lik, tazyiq va zo'ravonlik holatlari yuzasidan profilaktik tadbirlar, psixolog va boshqa turdag'i mutaxassislar maslahatlarini tashkil etish.

5. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 1006 ishonch telefoni hamda Himoya tarmog‘i orqali kelgan murojaatlarning ko‘rib chiqilishi yakunlari bo‘yicha mazkur muassasa rahbariyati va aybdor shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan intizomiy va boshqa ta’sir choralar qo‘llanilish amaliyoti kuchaytirilsin.

6. Oliy ta’lim muassasalari (filiallari), professional ta’lim muassasalari, akademik litseylar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlarda turli hodisa va huquqbazarliklar yuzasidan maxsus xabar berish tartibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ushbu tartibga so‘zsiz amal qilinishi bo‘yicha **shaxsiy mas’uliyat** mazkur muassasa va tashkilotlar rahbarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ma’naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi (O.Bazarov) bir hafta muddatda oliy va professional ta’lim muassasalarida, akademik litseylarda ta’lim oluvchi qizlarga nisbatan tegajog‘lik, tazyiq va zo‘ravonliklarni oldini olish bo‘yicha Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan **hamkorlik rejasini ishlab chiqish** bo‘yicha muloqot o‘rnatsin va tegishli tartibda taklif kiritsin.

8. Ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi (R.Do‘sanov) 1 kun muddatda mazkur buyruqning barcha oliy ta’lim muassasalari (filiallari), professional ta’lim muassasalari, akademik litseylar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlarga yetkazilishini ta’minlasin.

9. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.



Vazir

A.Toshqulov



O‘zbekiston Respublikasi
oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining
2021-yildagi 451 -son
buyrug‘iga 1-ilova

**Tegajog‘lik, tazyiq va zo‘ravonliklar bo‘yicha murojaatlar
bilan ishlovchi ishchi guruh
TARKIBI**

Nº	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	Y.Absoatov	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining o’rinbosari, <i>Ishchi guruh rahbari</i>
2.	O. Jamoldinova	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to’g’risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minalash masalalari bo‘yicha maslahatchisi, <i>Ishchi guruh rahbari o’rinbosari</i>
3.	F. Fayziyev	Yuridik bo’lim boshlig’i
4.	F. Farxodov	Vazirlik huzuridagi Ma’naviyat va ma’rifat markazi direktori o’rinbosari v.b.
5.	M. Qaxxarova	O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori
6.	Z. Xayrullayeva	O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti psixologi
7.	R. Polvonov	Toshkent tibbiyot akademiyasi “Nevrologiya va tibbiy psixologiya” kafedrasi assistenti, psixoterapevt
8.	F. Alimova	Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o’quv-ilmiy markazi bo’lim boshlig’i
9.	Y. Xakimova	Toshkent davlat transport universiteti Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi
10.	Z. Ismailova	Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi
11.	D. Ro’ziyeva	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi
12.	J. Lapasov	Tashkiliy-kadrlar boshqarmasi bosh mutaxassis
13.	D. Solixo’jayeva	Ma’naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi yetakchi mutaxassis, <i>Ishchi guruh kotibi</i>

Izoh: Ishchi guruh tarkibiga murojaatlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda, vazirlikning tegishli bo’linmalarini va ta’lim muassasalaridan boshqa mutaxassislar ham jalb etilishi mumkin.



O'zbekiston Respublikasi
oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining
2021-yil 11 -oktabrdagi 451 -son
buyrug'iga 2-ilova

**Turli hodisa va huquqbuzarliklar
yuzasidan maxsus xabar berish
TARTIBI**

1. Oliy ta'lif muassasalari (filiallari), professional ta'lif muassasalari, akademik litseylar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Kasbiy ta'lifni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tashkilotlar (keyingi o'rnlarda – muassasa va tashkilotlar) tomonidan muassasa va tashkilotlar, shuningdek professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar bilan bog'liq turli hodisa va huquqbuzarliklar yuzasidan maxsus xabarni mazkur Tartibning ilovasida keltirilgan holat aniqlangan vaqtidan boshlab, ko'rsatilgan muddatda Vazirlikka axborot va boshqa tegishli ma'lumotlar kiritilishi shart.

2. Maxsus xabarda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim:

hodisaning sodir bo'lgan vaqt, joyi, holati, usuli va boshqa tavsiflovchi xususiyatlari, hodisa natijasida yetkazilgan zarar, bu haqda muassasa va tashkilotlar rahbariyatiga xabar kelib tushgan vaqt, g'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizlikka yo'l qo'ygan xodimlarning shaxsi va xizmat vazifasiga oid ma'lumot;

o'tkazilgan xizmat tekshiruvi natijalari, ko'rilgan choralar va bunday hodisalarni oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar haqida ma'lumot; sodir bo'lgan hodisani tavsiflovchi boshqa ma'lumotlar.

3. Muassasa va tashkilotlarning rahbarlari sodir bo'lgan har bir hodisa va huquqbuzarlik bo'yicha xizmat tekshiruvi o'tkazilishi, huquqbuzarlikni kelib chiqish sabablari, unga imkon bergan shart-sharoitlar va ularni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi hamda xizmat tekshiruvi natijalari tegishli kollegial organlar va tezkor yig'ilishlarda muhokama qilinishini ta'minlaydi.

4. Maxsus xabarlar ro'yxatiga kiritilgan barcha hodisa va huquqbuzarliklar haqida belgilangan tartib va muddatda batafsil maxsus xabar Vazirlik rahbariyatiga kiritilishini ta'minlash uchun muassasa va tashkilotlar rahbarlari shaxsan javobgar hisoblanadi.

5. Sodir bo'lgan har bir hodisa bo'yicha maxsus xabar bermaslik yoki noto'g'ri xabar berish ijro intizomini buzish deb topiladi va bu aybdor shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Turli hodisa va huquqbazarliklar
yuzasidan maxsus xabar berish
Tartibiga ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga
yuborilishi lozim bo‘lgan maxsus xabarlar
RO‘YXATI**

T/r	Maxsus xabar mazmuni	Taqdim etish muddati	Maxsus xabarnomi yuborish usuli	Umumlashtirish uchun mas’ul boshqarma va bo‘limlar
1.	Professor-o‘qituvchilar va xodimlar, shuningdek ta’lim oluvchilar tomonidan yoki ularga nisbatan jinoyat, axloqqa zid xatti-harakatlar sodir etilishi yoxud favqulodda boshqa hodisalar yuz berishi yuzasidan	3 soat ichida	1. Maxsus xabarnomani berish	Ma’naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi, Tashkiliy-kadrlar boshqarmasi
		xizmat tekshiruv yakuni bo‘yicha	2. Xizmat tekshiruvi xulosasi va materiallarni berish	
2.	Professor-o‘qituvchilar va xodimlarning mansabini suiiste’mol qilishi, xizmat vazifasidan shaxsiy maqsadlarda foydalanishi hamda xizmat vazifasini qo‘pol tarzda buzishi holatlari yuzasidan	1 kun	1. Maxsus xabarnomani berish	Ma’naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi, Tashkiliy-kadrlar boshqarmasi
		xizmat tekshiruv yakuni bo‘yicha	2. Xizmat tekshiruvi xulosasi va materiallarni berish	
3.	Professor-o‘qituvchilar, xodimlar va ta’lim oluvchilarning vafot etishi, o‘z-o‘zini o‘ldirishi yoki o‘ldirishga suiqasd qilishi yuzasidan	3 soat ichida	1. Maxsus xabarnomani berish	Ma’naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi, Tashkiliy-kadrlar boshqarmasi
		xizmat tekshiruv yakuni bo‘yicha	2. Xizmat tekshiruvi xulosasi va materiallarni berish (zarurat bo‘lganda)	
4.	Muassasa va tashkilotlarga tegishli bo‘lgan avtotransport vositalarida hamda professor-o‘qituvchilar, xodimlar va ta’lim oluvchilar tomonidan tomonidan yoki ularga nisbatan sodir etilgan barcha yo‘l transport hodisalari yuzasidan	12 soat ichida	1. Maxsus xabarnomani berish	Tashkiliy-kadrlar boshqarmasi, Ishlar boshqarmasi
		xizmat tekshiruv yakuni bo‘yicha	2. Xizmat tekshiruvi xulosasi va materiallarni berish	
5.	Muassasa va tashkilotlarning barcha turdagи muhr va gerbli blanklari yo‘qolishi yuzasidan	1 kun	1. Maxsus xabarnomani berish	Tashkiliy-kadrlar boshqarmasi
		xizmat tekshiruv yakuni bo‘yicha	2. Xizmat tekshiruvi xulosasi va materiallarni berish	

6.	Professor-o‘qituvchilar va xodimlarning xizmat sohasidagi yoki boshqa obro‘sini to‘kadigan xatti-harakatlari uchun ishdan bo‘shatilganliklari yuzasidan	1 kun	1. Maxsus xabarnomani berish 2. Xizmat tekshiruvi xulosasi va materiallarni berish	Tashkiliy-kadrlar boshqarmasi
		xizmat tekshiruv yakuni bo‘yicha	3 soat ichida 2. Xizmat tekshiruvi xulosasi va materiallarni berish	
7.	Maxfiy tartibdagi hujjatlarning yo‘qolishi yuzasidan	3 soat ichida	1. Maxsus xabarnomani berish 2. Xizmat tekshiruvi xulosasi va materiallarni berish	Maxfiy-safarbarlik bo‘limi
		xizmat tekshiruv yakuni bo‘yicha	1 kun 2. Xizmat tekshiruvi xulosasi va materiallarni berish	
8.	Maxfiy tartibdagi hujjatlar bilan ishslash uchun ruxsatga ega xodimlarning noma'lum sabablarga ko‘ra chet elga chiqib ketishi yuzasidan	1 kun	1. Maxsus xabarnomani berish 2. Xizmat tekshiruvi xulosasi va materiallarni berish	Tashkiliy-kadrlar boshqarmasi, Maxfiy-safarbarlik bo‘limi
		xizmat tekshiruv yakuni bo‘yicha	6 soat ichida 2. Xizmat tekshiruvi xulosasi va materiallarni berish	
9.	Muassasa va tashkilotlarning binolarida o‘g‘irlik sodir etilishi va yetkazilgan moddiy-ashyoviy zarar yuzasidan	6 soat ichida	1. Maxsus xabarnomani berish 2. Xizmat tekshiruvi xulosasi va materiallarni berish	Ichki audit va moliyaviy nazorat boshqarmasi
		xizmat tekshiruv yakuni bo‘yicha	2 soat ichida 2. Xizmat tekshiruvi xulosasi va materiallarni berish	
10.	Muassasa va tashkilotlarning binolarida yong‘in chiqishi yoki og‘ir oqibatlarga olib kelgan talafotlar yuzasidan	2 soat ichida	1. Maxsus xabarnomani berish 2. Xizmat tekshiruvi xulosasi va materiallarni berish	Iqtisodiyot boshqarmasi, Ishlar boshqarmasi
		xizmat tekshiruv yakuni bo‘yicha	2. Xizmat tekshiruvi xulosasi va materiallarni berish	

Izoh. Muassasa va tashkilotlar rahbarlari maxsus xabar yuborish uchun mas‘ul shaxs hisoblanadi.